



INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARDA "KIYIM" KOMPLEMENTLI FRAZEOLGIK BIRLIK LAR NING TADQIQI

N.R. Arslonzoda,
FarDU mustaqil tadqiqotchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 26

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1457>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

frazeologik birliklar, "Kiyim" komponenti, etimologiya, gender, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy-chog'ishtirma tahlil, xalq, o'zlashgan qatlam.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada "Kiyim" komponentli frazeologik birliklarning ingliz, rus va o'zbek tillarida qiyosiy-chog'ishtirma aspektida tadqiqiga e'tibor qaratildi. Frazeologik birliklarda kiyim anglatuvchi leksemalarning etimologiyasi muhokama qilindi. "Kiyim" komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari namoyon etildi. Xususan, frazeologik birliklar tarkibidagi kiyim anglatuvchi komponentlarning milliy xususiyatlari va etimologiyasi bilan ifodalanishi tahlil qilinib, ingliz tilidagi frazeologiyasini golland, irland tillaridan kelib chiqqan hamda sof qatlam birliklari tashkil etsa, rus tili frazeologiyasi slavyan va Evropa tillari, o'zbek tili frazeologiyasiga arab, fors va turkiy tillar ta'sir etganligi ko'rsatildi. "Kiyim" komponentli frazeologik birliklarning uchta tilda farqlanishi milliy urf-odatlar hamda yashash hududi kabi omillar ta'siri ostida voqelanishi e'tirof etiladi.

Kirish. Bugungi kunda frazeologik birliklarning tadqiqi turli til sohiblarining mentaliteti va dunyoqarashining o'ziga xosligini namoyon etadi. Frazeologik birliklar millat tili xazinasidir, chunki frazeologizmlar tilda millat an'analari, tarixi, ijtimoiy rivojlanishi bilan birga xalqning fikrlashi va tafakkurini aks etadi. Til o'rganilishida til tizimi bilan birga ushbu til sohiblarining madaniyatini o'rganish lozimdir deb, bejiz aytilmaydi. Shuning uchun bugungi kun tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik sohasiga alohida e'tibor qaratilib, til birliklari va til hodisalari lingvomadaniy jihatdan keng tadqiq etilmoqda. Frazeologik birliklar, millatning ajralmas qismi sifatida, millat tafakkurini tushunishga imkon beradi. Har qaysi xalq boy madaniyat va tarixga ega bo'lib, aynan frazeologik birliklar esa millat madaniyati va tarixini dunyoga yetkazadi. Ayniqsa, kiyim, kiyinish an'anasi millat madaniyatini namoyon etadi. Shu bois "kiyim" komponentli frazeologik birliklarning uchta tilda qiyosan-chog'ishtirma tadqiqini olib borish til va madaniyatni o'zaribog'langan holda o'rganish vazifasini belgilyadi. Mazkur maqola ingliz, rus va o'zbek tillarda "kiyim" komponentli frazeologik birliklarning tadqiqiga bag'ishlanib, turli tizimli tillarda kiyim anglatuvchi leksik birliklarning frazeologik birliklar komponenti sifatida kelishi muhokama etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda kiyim anglatuvchi frazeologik birliklar tadqiqini lingvomadaniyatshunoslik sohasi doirasida olib borish nihoyatda dolzarb vazifalaridan biri, deb hisoblaymiz. Frazeologik birliklarni o'rganish, ularning turli tizimli tillarda ekvivalentlarini aniqlash zamonaviy lug'atshunoslik sohasining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

"Kiyim" komponentli frazeologik birliklarning qiyosiy va chog'ishtirma tadqiqiga rus tilshunosligida L.A.Gamayeva¹, N.S.Ilyushenko², T.A.Larina³, Ye.S.Skiyar⁴, L.Tsintszyan⁵ o'z hissalarini qo'shgan. O'zbek tilshunosligida "kiyim" komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlarida Z.Sh.Jumayevaning⁶ ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Natijalar. Kiyim tushunchasi keng izohlanib, turli elementlarni o'z ichiga oladi, ya'ni bosh kiyim, poyabzal, kiyimning bezatish predmetlari, kiyim qismlari va aksessuarlari. Har qaysi xalqning kiyimi o'zi yashagan hududini, iqlim va ob-havosini inobatga oladi. Shu bois tilning leksik tizimida kiyimning ma'lum bir turiga ko'ra tematik tasniflar hududiy-etnik ta'rif-tavsifini e'tiborga olgan holda shakllanadi. Kiyim, kiyim aksessuarlari va taqinchoqlarning leksik tizimi folklorshunoslik bo'yicha maxsus adabiyotlarda o'rganiladi. Ma'lum bir xalqning urf-odatlarini, an'analari, tarixi, adabiyoti, etnografiyasini o'rganayotgan olim ushbu xalqning kiyim, kiyim qismlari va elementlarini ham tadqiq qiladi. Kiyim bevosita millat, xalq urf-odatlarini, an'analari va tarixi bilan bog'liqdir.

Kiyim va uning turlarini tadqiq qilish tyurkologiyada boshlanib, o'rta asr davralarga borib taqaladi. Maxmud Kashgarining "Devonulugati-t-turk" asarida kiyim turlarining izohlari o'rin olgan. Kiyim leksikasining o'rganilishi XIX-XX asrlarda boshlanib, turli lug'atlarda aks etadi.

Kiyim nomlarini ifodalovchi leksik birliklar ingliz, rus va o'zbek tillarida frazeologik birliklar komponentlari bo'lib keladi. "Kiyim" komponentli frazeologik birliklar hozirgi zamonaviy ingliz, rus hamda o'zbek tillarida keng qo'llanishi bilan birga eskirganligi hamda iste'moldan chiqib ketganligi tufayli faqat adabiy asarlarda qo'llanishi bilan tavsiflanadi.

Kiyim va uning turli qismlarini ifoda etadigan leksik birliklardan iborat frazeologik birliklarning hajmi har qaysi tilda farqlanadi. Tadqiqot ishda biz o'z tarkibida "kiyim" komponenti bo'lgan frazeologik birliklarni kiyim nomiga ko'ra guruhlariga bo'linishi masalasiga ham e'tibor qaratdik. Ya'ni ingliz, rus va o'zbek tillarida "kiyim" komponentli frazeologik birliklarni komponentiga ko'ra tasnifini taklif qildik.

Ingliz, rus va o'zbek tillari frazeologik birliklarida kiyim va uning turli qism nomlarini anglatuvchi quyidagi leksik birliklar ajratildi:

rus tilida: *брюки, костюм, жилетка, кафтан, мундир, пепанча, одежда, сарафан, сорочка, фрак, шуба, штаны, портки, юбка, рукав, карман, галстук, пояс, ремень, подол, перчатка, рукавицы, варежка, воротник, риза, сапоги, башмак, шапка, кепка, чулок, каблук, рубашка, шляпа, портянка, калоша, колпак, валенок, сандалия;*

ingliz tilida: *clothing, shoes, sleeve, hat, bonnet, pocket, boot, cap, belt, heels, clothes, cloak, blouse, shirt, skirt, collar, swaddling clothes, stocking, glove, gauntlet, cuff, sock, trousers, button;*

o'zbek tilida: *to'n, chopon, ko'yak, do'ppi, kavush, belbog', ro'mol, yaxtak, mahsi, salla, etik, yeng, yoqa, cho'ntak, ishton, paytava, yo'rgak, ishtonbog', kamar, shlyapa.*

Rus tilida "kiyim" komponentli frazeologik birliklarda ishtirok etgan kiyim nomlar soni 38ta, ingliz tilida 24ta, o'zbek tilida 20ta tashkilladi.

Muhokama. Kiyimni ifodalaydigan leksik birliklar bilan birga aksessuarlarni bildiruvchi leksemalarni ham qo'shdi. Aksessuar (fr. *accessoire* ot lat. *accessorius* —"qo'shimcha") kiyimga qo'shimcha, majbur bo'lmagan predmet va buyumlarni anglatadi. Masalan, hozirgi davrda poyabzal turlari ko'payib, ayrim poyabzal bilan paypoq kiyilmaydi, shuning uchun paypoq ayrim zamonaviy manbalarda kiyim emas, aksessuar hisoblanadi, ba'zilarida esa ichki kiyim turiga kiritiladi. Galstuk, kamar ham kiyim emas, balki aksessuarlarga qo'shiladi. Shuningdek, kiyim qismlari ifoda etilgan frazeologik birliklar tahlilga

¹ Гамаева Л.А. Метод семантического моделирования на примере фразеологических единиц немецкого, английского и русского языков с компонентами-обозначениями предметов и деталей одежды // Современные тенденции кросскультурных коммуникаций: сборник материалов I Международной научно-исследовательской конференции. — Краснодар: КубГУ, 2019. — С.12-17.

² Илющенко Н.С. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом «Предмет одежды» в английском и русском языках // Международный научно-исследовательский журнал, 2016. — №6 (48). Ч.4. — С.38-39.

³ Ларина Т.А. Семантика фразеологических единиц с компонентами-наименованиями одежды в английском и русском языках // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2015. №8(50). Ч.2. — С.100-103.

⁴ Скияр Е.С. Фразеологизмы с названием одежды в русском и английском языках // Региональный вестник, 2019, № 6(21). — С.28-30.

⁵ Цинцзян Л. Фразеологизмы с названиями одежды в лингвокультурологическом аспекте // Вестник Воронежского государственного университета, 2008.

⁶ Жумаева З.И. Фразеологические единицы и лингвокультурологический анализ: Фил.ф.б.ф.д. дисс. — Жиззах, 2021.

tortildi, masalan, ko'ylak yengi, oyog' kiyimning poshnasi, ishton cho'ntagi, belbog' kabi leksemalar qo'llangan frazeologik birliklar ham "kiyim" komponentli frazeologik birliklar qatoriga qo'shildi.

Quyida "Kiyim" nomlovchi leksik birliklarning ingliz, rus hamda o'zbek tillari frazeologik birliklarida uchrashishiga ko'ra tasnifini taklif qilamiz. Ushbu tasnifga nafaqat kiyim nomlovchi, balki kiyim qismlari, akсессуарlari hamda kiyim tikish uchun mato, gazlama, ularning o'lchov birligini ifodalovchi leksik birliklarni kiritdik. Kiyim nomlarini ifodalovchi leksik birliklar ingliz, rus va o'zbek tillarida teng faollashmaydi.

Kiyim anglatuvchi leksik birliklarning kelib chiqishi sof rus, ingliz yoki o'zbek tillariga mansub emas. Quyida uchta tildagi frazeologik birliklarning etimologik jihatlarini ko'rib chiqildi.

Rus tilida kiyim anglatuvchi leksik birliklarni sof rus tiliga yoki slavyan tillarga mansubligi, boshqa tillardan kirib kelganligini etimologik lug'atlaridan kuzatish mumkin. Sof ruscha so'zlarga *платье* (qadimiy rus tili "плат" so'zi gazlama bo'lagini anglatar edi), *сорочка* (kiyim), *портки*, *портянка* (eski rus tilidan "порт" so'zidan kelib chiqib, *tikuvchi* yoki *mato* ma'nosini berar edi), *подол* (eski rus tilidan "дол" pastki ma'nosini beradi), *перчатки* ("перст" *barmaq* so'zini anglatadi), *пояс*, *воротник*, *одежда*, *сапог* (slavyan tillaridan), *валенки* ("валять" slavyan tilidan), *лапоть* ("лана" slavyan tillarida), *тапочки* (slavyan tillari "топать" fe'lidan), *стелька* (rus tili "стелить" fe'lidan), *рукав* (slavyan yodgorliklarida uchraydi). Yevro'pa tillari ham rus tilining kiyim anglatuvchi leksik birliklar qatorini anchagina boyitgan. Jumladan, *жилет*, *фрак*, *костюм*, *шапка*, *кепка* so'zlari frantsuz tilidan, *мундир*, *галстук*, *шляпа*, *шпилька*, *шпильки* so'zlari nemis tilidan, *брюки* golland tilidan, *калоши*, *риза* yunon tilidan kirib kelganligini ta'kidlash mumkin. Sharq tillaridan kiyim anglatuvchi so'zlarning rus tiliga kirib kelishiga ko'proq arab, turkiy va fors tillar hissa qo'shgan. Arab tilidan *юбка*, *шуба*, turkiy tillardan *штаны*, *епанча*, *карман*, *коллак*, *каблук*, *башмак*, *чулок*, fors tilidan *кафтан*, *сандалия* so'zlari kirib kelganligini kuzatish mumkin.

Ingliz tilida kiyim anglatuvchi so'zlarni etimologik jihatdan ko'rib chiqsak, ulardan ingliz tilining o'z qatlamiga kiruvchi *clothing*, *stocking*, *glove*, *gauntlet*, *cuff*, golland tilidan *shoes*, *sleeve*, *heels*, Norvegiya tilidan *hat*, *shirt*, *skirt*, frantsuz tilidan *bonnet*, *pocket*, *boot*, *cloak*, *blouse*, *button*; lotin tilidan *cap*, *belt*, *collar*, yunon tilidan *sock*, irland tilidan *trousers* so'zlarini keltirish mumkin. Ingliz tili leksikasining o'z qatlami 25%ni tashkil qiladi. Shuning uchun olinma so'zlar o'z qatlamidan ortib borishi kuzatiladi. Mazkur so'zlarning har birisi bugungi kun ingliz tiliga singib ketib, faol leksika qatoriga kiritiladi.

O'zbek tilida kiyim anglatuvchi so'zlarning etimologiyasi arab, fors, rus va o'z qatlam bo'lgan turkiy tillardan kelib chiqqanligi ko'rinadi. Jumladan, *to'n*, *chopon*, *do'ppi*, *etik*, *ko'ylak*, *ishton*, *yeng*, *yoqa*, *ro'mol*, *egn*, *belbog'*, *cho'ntak* turkiy tillardan, *salla*, *paytava*, *kavush* fors tilidan, *shlyapa* rus tili orqali nemis tilidan, *mahsi*, *kamar* arab tilidan kirib kelganligini e'tirof etish mumkin.

Hozirgi kunda ushbu so'zlarning boshqa tillardan kirib kelganligi sezilmaydi. Ular kirib kelgan tillarga moslashib, tilning o'z qatlam so'zlari bilan birga faol qo'llanmoqda. Boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar hattoki milliy kiyim anglatishni boshlagan.

Kiyim anglatuvchi leksik birliklar yoki bu tildan kirib kelgan bo'lib, ingliz, rus yoki o'zbek tili frazeologik birliklar tarkibidan o'rin olishi hamda frazeologik birliklar komponenti sifatida qo'llanilishi bilan biz ushbu frazeologik birliklarni ham leksik birliklar kirib kelgan tildan kelib chiqqan deya olmamiz. So'zlar bitta tildan boshqa tillarda o'zlashar ekan, mazkur til sohiblari ularni qo'llashni boshlagandan so'ng tilning leksik tizimidan o'rin olib, millatning olam manzarasida turli tushunchalarni anglatib kelishi kuzatiladi. Shuning uchun o'zbek tiliga arab yoki fors tilidan kirib kelgan so'zlar bilan birga ular ishtirok etgan

frazeologik birliklar ham kirib kelgan deyish xato bo'lar edi. Yoki rus tilidagi kiyim anglatuvchi so'zlarning aksariyati boshqa tillardan kirib kelgan, shu bilan birga ushbu so'zlar ishtirokida aynan rus millati frazeologik birliklarning vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun har qaysi frazeologik birlikda millat tusi, millatning majoziy fikrlashi, millatning o'ziga xosligi, uning an'analari, tarixi, hayot tarzi mujassamlanadi.

Frazeologizmlarda uchraydigan kiyim ifodalovchi leksik birliklarning tasnifida madaniyat belgisi bo'lgan birliklarni uchratish mumkin. Kiyim va kiyimga taalluqli birliklarning aksariyati umumiste'mol va neytral leksika hisoblanadi. Eskirgan va hozirgi zamonaviy tilda qo'llanmaydigan leksika tarkibiga rus tilida *кафтан*, *епанча* va *риза* kiritilib, istorizm hisoblanadi. Aynan rus madaniyatiga taalluqli birliklar qatoridan o'rin olgan *епанча*, *кафтан*, *риза*, *портянка*, *портки*, *сарафан* leksemalarni hamda o'zbek madaniyatiga taalluqli *chopon*, *mahsi*, *ro'mol*, *salla*, *do'ppi*, *kavush* leksemalarni lingvokulturema deb atash mumkin, chunki ushbu birliklar aynan bitta millat belgisidir. Ingliz tilida milliyligi bilan ajralib turgan birlik faollashmadi, ya'ni ta'kidlash kerakki, ingliz tilida mazkur leksemalar har qaysi millatda ham uchrab, neytral leksika qatoriga kiritiladi. Ulardan *bonnet* ayollar bosh kiyimi bo'lib, o'zbek tilida muvofiq ekvivalenti mavjud emas, lekin Yevro'paning har qaysi tilida ushbu bosh kiyimi iste'molda bo'lib, hattoki Rossiyaga 17-19 asrlarda kirib kelganda ingliz varianti bilan emas, balki *kapor* nemis varianti bilan atalishi boshlagan. Hozirgi kunda ushbu bosh kiyimni kiyish urfdan chiqib ketganligi sababli tarixiy so'zlar qatoriga kiritiladi. Kiyim anglatuvchi so'zlar ma'nosi torayishi yoki kengayishi ham mumkin. Masalan, *сарафан* rus ayollarining milliy kiyimlaridan bo'lib, ma'nosi kengaygan. Dastlabki ma'nosi istorizm hisoblanib, ilgari davrlarda rus ayolining milliy kiyimini anglatga, hozirgi ma'nosi bilan ayollarning yengiy o'q ko'ylagini ham anglatadi.

Kiyinish odati xalqning an'analari, yashash hududiga bevosita bog'liqligini ingliz, rus va o'zbek tillarida frazeologik birliklarda faollashgan kiyim nomlaridan ko'rish mumkin. Rossiyaning aksariyat qismi shimoliy hududda joylashgan. Shuning uchun frazeologik birliklarda qishki kiyim anglatuvchi qator leksik birliklarni kuzatish mumkin, masalan: *шуба*, *пальто*, *сапоги*, *валенки*, *портки*, *портянки*. O'zbek xalqning yashash hududi O'rta Osiyo bo'lganligi uchun O'rta Osiyo xalqlari ichida tarqalgan kiyimlar uchraydi.

Kiyim nomini anglatuvchi leksemalardan ayrimlari faqat erkaklar yoki ayollar kiyimini ifodalaydi. Masalan, rus tilida *кафтан*, *мундир*, *сюртук*, *фрак*, *картуз*, *кепка*, *брюки*, *шпильки* erkaklar kiyimi hisoblanib, *юбка*, *сарафан*, *венец*, *фуаль*, *шпильки* ayollar kiyimlari qatoridan o'rin oladi. Ingliz xalqida *pants*, *trousers*, *shirt* erkaklar kiyimi, *skirt*, *stocking*, *bonnet*, *blouse* ayollar kiyimidir. O'zbek tilida *salla*, *yahtak* erkaklar kiyimi, *ro'mol*, *kavush* ayollar kiyimi hisoblanadi. *Pants*, *trousers* leksemalar ishtirokidagi frazeologik birliklarda erkaklik xususiyati faollashadi, masalan *To wear pants in one's family* frazeologizmida ushbu leksema erkak ma'nosini anglatadi. Yoki *skirt* leksemasi frazeologik birliklarda ularning komponenti bo'lib kelib, ayol ma'nosini anglatadi. Lekin frazeologik birliklarda ushbu komponentlar ishtiroki doimo ham ayol yoki erkak jinsni namoyon etmaydi. Masalan, *All talk and no trousers*, *To clear ones' skirts*, *A bee in ones' bonnet*, *Остаться без штанов*, *Сарафанное радио* iboralarida erkak va ayol belgisi mavjud emasdir.

Xulosa. Umumiy lashtirib, aytish kerakki, "kiyim" komponentli frazeologik birliklarni ingliz, rus va o'zbek tillarda chog'ishtirma aspetkda o'rganish, ularning leksikografik yondashuvida lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash nihoyatda dolzarb masalalaridan biridir. Kiyim anglatuvchi frazeologizmlarning ekvivalent hamda ekvivalentsiz holatlarini namoyon etish xalqning milliy-madaniy o'ziga xosligini tilda aks etilishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гамаева Л.А. Метод семантического моделирования на примере фразеологических единиц немецкого, английского и русского языков с компонентами-обозначениями предметов и деталей одежды // Современные тенденции кросскультурных коммуникаций: сборник материалов I Международной научно-исследовательской конференции. – Краснодар: КубТУ, 2019. – С.12-17.
2. Жумаева З.Ш. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи: Фил.ф.б.ф.д...дисс. – Жиззах, 2021.
3. Ильюшенко Н.С. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом «Предмет одежды» в

английском и русском языках // Международный научно-исследовательский журнал, 2016.-№6 (48).Ч.4.– С.38-39.

4. Ларина Т.А. Семантика фразеологических единиц с компонентами-наименованиями одежды в английском и русском языках//Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2015.№8(50).Ч.2. – С.100-103.

5. Скляр Е.С. Фразеологизмы с названием одежды в русском и английском языках // Региональный вестник, 2019,№6(21). – С.28-30.

6. Цзинцян Л. Фразеологизмы с названиями одежды в лингвокультурологическом аспекте // Вестник Воронежского государственного университета, 2008.